

FRAZEOLOGIYA VA ULARNI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

**Shavqiyeva Maftuna Salimboy qizi**

*Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari, fraza tushunchasi, uning turlari hamda frazeologizmlarni tarjima qilish masalalari ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *frazeologizmlar, ibora, leksik birlik, muqobil, tarjima, ekvivalentlik.*

PHRASEOLOGY AND TRANSLATION PROBLEMS

**Abstract:** *This article deals with the specific features of phraseology, the concept of phrase, its types, and the issues of translating phraseology.*

**Key words:** *phraseology, idiom, lexical unit, equivalent, translation, equivalence.*

Muloqot jarayonda biz o'z fikrimizni bayon qilish uchun so'zlar yordamidagina emas, balki bir necha so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'lgan birikmalardan ham foydalanamiz. Bu kabi barqaror birikmalarga maqol, matal va iboralar kiradi. Masalan,

Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda (o'zbek xalq maqoli).

Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog' ( matal).

Uning boshi osmonga yetdi ( ibora).

Barqaror birikmalar frazeologizmlar deb ham ataladi. Ularning o'ziga xos belgilari mavjud:

1) nutqqa tayyor holda olib kirishlik;

2) ma'no yaxlitlig;

3) tuzulishi va tarkibing barqarorligi.

Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi. Nutqimiz shakli va mazmuni, uning mohiyati aynan frazeologik birliklari yordamida yetkazib beriladi. Shuningdek, nutqdagi ta'sirchanlik, bo'yoqdorlik yanada kuchayadi. Frazeologizmlar aynan shu vazifani bajarishda asosiy ko'makchilar hisoblanadi.

Frazeologiya - tilshunoslikning bir bo'limi sifatida frazema, ya'ni ifoda, iboralarning tarkibini ularning holatini, frazeologik birliklarni o'rganuvchi sohadir. Taniqli tarjimashunos olim G'aybulloh as-Salom ta'kidlaganidek: " Agar bo'lsa, tilning "mo'jizasi" - undagi maqol, matal va idiomalardir".

Tarjima jarayonida frazeologizmlarni tarjima qilish, ularga to'g'ri muvofiq muqobillarni topish muhim ahamiyatga ega. Negaki muayyan tilda qo'llaniladigan frazemalarni boshqa bir tilda aks ettirish, tarjima qilinayotgan til, o'sha xalqning madaniyatiga, yashash tarziga frazemaning ma'nosini, ahamiyatini yetkazib berish asosiy vazifalardan biridir. Frazeologik birliklarda ma'lum bir xalqning hayotiy

tajribasi, donishmandligi hamda o'sha xalqning ruhiyati aks etgan bo'ladi. Shuning uchun maqol, matal va idiomalarni tarjima qilishda bir qancha jihatlarga e'tibor berish lozim.

Tarjimada frazeologik birliklar ikki til o'rtasida taqqoslab tanlanadi. Bu orqali tillarning o'zaro farqli va o'xshash tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ,asosan, to'rt usuldan foydalaniladi.

1. Ekvivalentlar vositasida tarjima qilish.
2. Muqobil variantlar bilan tarjima qilish.
3. Kalka usulida tarjima qilish.
4. Tasviriy usulda tarjima qilish.

#### I. Ekvivalent vositasida tarjima qilish

Ushbu usulda asliyatdagi frazeologik birliklar tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent topiladi. Ba'zi frazemalar bir tildan boshqa tilga aynan tarjima qilinadi. Bunga sabab ayrim xalqlarning yashash tarzi, an'analari va madaniyati o'xshash bo'lib, ular aynan bir xil shakl va vaziyatda ishlatiladi. Masalan, ingliz tilidagi ibora o'zbek tiliga ma'no jihatdan ham, shakl jihatidan ham aynan mos keladi.

What wind blows you here? - Qanday shamol uchirdi seni bu yerga?

To play with fire - olov bilan o'ynashmoq

Moment of silence - sukut saqlash payti

#### II. Muqobil variantlar bilan tarjima qilish

Bu usulda asliyatdagi frazeologizmlarga mos ekvivalent frazeologik birlik topilmasa, tarjima tilida muqobil variantlar orqali tarjima qilinadi. Bunda frazemalar ma'no va mazmuni o'xshash bo'ladi, ammo ular leksik hamda grammatik jihatdan farqlanadi. Quyidagi misollarda frazeologik birliklar muqobil variantlar yordamida tarjima qilingan.

To save for a rainy day - Qora kunga asrab qo'yimoq.

To make a mountain out of a mole hill - Pashshadan fil yasamoq.

All bread is not baked in one oven - Besh qo'l barobar emas.

When pigs fly - Tuyaning dumi yerga tekkanda.

A piece of cake - Xamirdan qil sug'urganday.

#### III. Kalka orqali tarjima qilish

Har bir xalqning, har bir tilning boshqa bir tilda uchramaydigan o'z tushunchasi, frazeologik birliklari bo'ladi va bu birliklarga ekvivalent yoki muqobil variant topilmasligi mumkin. Ana shunday vaziyatda kalka usulida, ya'ni so'zma-so'z tarjima qilinadi. Ba'zi bir ingliz tilidagi frazeologik birliklarning o'zbek tilida muqobil variantlari mavjud emas. Ular so'zma-so'z tarjima qilinadi.

To learn to walk before you run - Yugurishdan oldin yurishni o'rganmoq.

You can't make an omelette without breaking eggs - Tuxum chaqmasdan turib, tuxumli quymoq tayyorlab bo'lmaydi.

To put all eggs in one basket - Bir savatga hamma tuxumlarni joylamoq.

#### IV. Tasviriy usulda tarjima qilish

Agar muayyan frazeologizmlarga ekvivalent ham, muqobil variant ham topilmasa hamda uni kalka yordamida ifodalashning imkoni bo'lmasa, tasviriy yo'l bilan tarjima qilinadi. Bunday vaqtda tarjimon erkin holda tasviriy usuldan foydalanadi. Ammo bu holatda birlikning tarjima tilida ta'sir kuchi pasayadi, aniqligi va silliqiligi yo'qoladi.

A tall order - mushkul topshiriq.

To be in the same boat - bir xil vaziyatda bo'lmoq.

You might have knocked me down with a feather - Siz meni qushning pati bilan yiqitishingiz mumkin edi.

Let the cat out of the bag - gullab qo'ymoq.

Tarjima jarayonida frazemalarning to'g'ri ishlatilishi, shu bilan birga, ularni adekvat tarjima qilish masalasi bugungi kungacha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarjima jarayonida aslyatdagi ruhni tarjima tilida aks ettirishimiz uchun ham tarjima ustida mukammal ishlashimiz zarur. Biz tarjimonlar tilning tarjimadagi aksini tiniq ifodalash, iloji boricha tarjimani adekvatlashtirishda frazeologizmlardan to'g'ri foydalana olish usularini o'rganib kelmoqdamiz. Barqaror birikmalarga mos ekvivalent, muqobil variant topa olishimiz, shu bilan birga, kalka usulidan yoki tasviriy tarjima usulidan foydalanishimiz zarur.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Мўминов О., Қўлдошева, ҲошимовЎ. Инглиз тили дарслиги (English for Translators) – Тошкент, “Шарқ” нашриёти, 2005.
2. Muminov O. A Guide to Simultaneous Translation – Tashkent, 2005.
3. Shavqiyeva M.S. Hozirgi o'zbek tili sintaktik aloqalarining lingvistik tahlili // Innovative development in educational activities – 2023. – T.2. – № 12 – C.128-132.
4. Shavqiyeva M.S. Sintaktik aloqalar hamda ularning lingvistik tahlili // Innovative development in educational activities – 2023. – T.2. – № 12 – C.124-127.
5. Shodiyev S.E. Bio-social need to the study of lexical meaning // Journal of Positive School Psychology – 2022. – T 6, №. 9 – C. 4771-4777.
6. Absamadova M.I. The Impact of Diplomatic Language on International Relations: A Comprehensive A Analysis // International Journal of Formal Education – 2024. – T.3. – № 5 – C.299-302.
7. Ibayev A.J. Comparative analysis of the derivation of simple sentences in English and Uzbek// International Journal for Research in Applied Science & Engineering Technology (IJRASET) ISSN: 2321-9653; Volume 10 Issue IV Apr 2022. –P. 2146-2150. (SJ Impact Factor: 7.538).
8. Jamshed, Mirzoyev. "Communicative aspect of teaching English as a specialty." The role of science and innovation in the modern world 2.4 (2023): 123-129.
9. Bakiyev F.J., & Shavqiyeva M.S. (2024). Neologizmlar va ularni tarjima qilish masalalari // Innovative development in educational activities – 2023. – T.3. – № 3 – C.318-321.